

**TEXNIK TOPSHIRIQNOMA**



«TASDIQLAYMAN»  
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB  
Boshqaruv raisi o'rinosari v.b.:  
**O.Voxidov**

«18» iyul 2025 y.  
№ 120

**Visa xalqaro to‘lov kartalarini sotib olish bo‘yicha**

**TEXNIK TOPSHIRIQ**

<b>№</b>	<b>Asosiy talablar ro'yxati</b>	<b>Talablarning mazmuni</b>
1	Buyurtmachi	"Biznesni Rivojlantirish Banki" ATB
2	Bajariladigan ish yoki ko'rsatiladigan xizmat turi	"Biznesni Rivojlantirish Banki" ATB ehtiyojlari uchun Visa xalqaro to'lov kartalarini yetkazib berish
3	Tovar va xizmat turini sotib olish maqsadi	Bank kartalari emissiyasi uzluksizligini ta'minlash va naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini rivojlantirish
4	Tovarlarni sug'urta qilish	Ko'zda tutilmagan
5	To'lov shartlari	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. To'lov tovar buyurtmachining omboriga kirim qilinganligi to'g'risida hujatlar va hisob-faktura berilgandan keyin 10 ish kuni ichida amalga oshiriladi.</li> <li>2. Ish boshlanishidan oldin umumiy summaning avans miqdori: Oldindan to'lov amalga oshirilmaydi.</li> </ol>
6	Tovarning texnik xususiyatlari	Plastik kartalar Java platformasiga asoslangan kontaktni va kontaktsiz interfeysga ega bo'lishi va quyida keltrilgan talablariga javob berishi kerak:
7	Plastik kartalarning turlari va miqdoriga bo'lgan talablar	<ul style="list-style-type: none"> <li>① Visa Classic – 60 000 dona;</li> <li>② Visa Platinum – 5 000 dona;</li> <li>③ Visa Infinite – 3 000 dona.</li> </ul> <p>Jami 68 000 dona.</p>
8	Texnik xususiyatlar.	<p><b>Chip:</b> Kona2 D2350/Pectoral D n-VSDC SC232;  <b>Chip turi:</b> DUAL interfeysli;  <b>Interface:</b> DUAL v6.7 + yuqori darajadagi Magstripe qo'llab-quvvatlovi;  <b>To'lov tizimi:</b> Visa;  <b>Texnik turi va versiyasi:</b> VIS 1.5.4 va undan yuqori; Pay Wave (MSD) mavjud emas;  <b>Imzo paneli:</b> Visa standarti bo'yicha 57x10 mm;  <b>Magnit lenta:</b> HiCo, 12,7 mm;  <b>Gologramma:</b> Visa gologrammasi (Visa Certified / Successful Projects List talablariga muvofiq);  <b>Sertifikat:</b> Visa tomonidan sertifikatlangan bo'lishi shart;  Emitent skript xostlarini qo'llab-quvvatlash lozim;</p>

		<p><b>Qo'shimcha talablar:</b></p> <p>Yetkazib beruvchi Visa xalqaro to'lov tizimining talablariga mosligini tasdiqlovchi <b>Letter of Approval of Vendor Product</b> hujjatini taqdim etishi shart.</p> <p>Yetkazib beruvchi tovarning bank tomonidan foydalanilayotgan monitoring va boshqaruv tizimi (<b>DCI monitoring</b>) bilan mos ishlashini tasdiqlovchi xatni taqdim etishi kerak.</p> <p>Tovar Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan <b>dizayn asosida</b> ishlab chiqarilishi lozim.</p>
9	O'lchamlarga, qadoqlarga, tovarlarni jo'natishga qo'yiladigan talablar.	<p>Plastik kartalar taqdim etilgan har bir paket ikkita qarama-qarshi tomonidan qadoqlangan bo'lishi kerak. Quyidagi ma'lumotlar ingliz va rus tillarida o'chirilmaydigan bo'yoq bilan aniq yozilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Shartnoma raqami</li> <li>Joy raqami</li> <li>Brutto og'irligi kg</li> <li>Netto og'irligi kg</li> <li>Miqdori</li> <li>Buyurtmachi (ism va manzil)</li> <li>Yetkazib beruvchi (ism va manzil)</li> </ul> <p>Maxsus ishlov berishni talab qiladigan qutilar quyidagi qo'shimcha belgilar bilan belgilanadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Yuqori</li> <li>- Ehtiyyotkorlik bilan</li> <li>- Otmang</li> <li>- Quruq joyda saqlang</li> </ul> <p>Barcha plastik kartalar tashish, saqlash vaqtida shikastlanishdan himoyalangan va eksport tipidagi qadoqlarga qadoqlanishi kerak. Sifatsiz yoki noto'g'ri qadoqlash va/yoki tashish natijasida plastik kartalarning har qanday zararlanishi uchun Yetkazib beruvchi Buyurtmachi oldida javobgar bo'ladi. To'liq yoki noto'g'ri qadoqlash natijasida plastik kartalarning shikastlanishi yoki noto'g'ri manzilga yetkazilishi bilan bog'liq yo'qotishlar uchun Yetkazib beruvchi javobgar bo'ladi.</p>
10	Agar davlat xaridi tavsifida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, mahsulot yangi bo'lishi, avval foydalanilmaganligi to'g'risidagi belgi bo'lishi.	Plastik kartalar yangi, ishlab chiqarishdan olib tashlanmagan va avval foydalanilmagan bo'lishi kerak. Plastik kartalar Visa xalqaro to'lov tizimidan tegishli sertifikatlarga ega bo'lishi kerak, ularning amal qilish muddati 2028-yil 31-dekabrdan oldin bo'lmasligi kerak. Taklif etilayotgan tovarlar uchun sertifikatlarning amal qilish muddati 2028 yil 31 dekabrgacha tugasa, sertifikatni yangilash rejalarini tasdiqlovchi ma'lumot xatini taqdim etilishi kerak.
11	Tovarning to'liq bo'lishiga oid talablar	Yetkazib beruvchi, to'liq jihozlangan funksional plastik kartalarni taqdim etishi va zarurat tug'ilganda, ayrim sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan hisobga olinmagan, ammo so'rالgan konfiguratsiyadan to'liq foydalanishni ta'minlash

		uchun zarur bo‘lgan qo‘sishimcha modullar, mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilishi kerar.
12	Mahsulot ekspluatatsiya va xizmat ko‘rsatilishiga qo‘yilgan talablar.	Barcha plastik kartalar Visa xalqaro to‘lov tizimi doirasida foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi kerak.
13	Mahsulotni ekspluatatsiya qilish bilan bog‘liq xarajatlariga qo‘yiladigan talablar.	Ko‘zda tutilmagan.
14	Mahsulotning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me’yoriy hujjatlarga muvofiqligiga qo‘yiladigan talab.	Yetkazib berish uchun taklif etilayotgan plastik kartalar texnik shartlarda ko‘rsatilgan standartlarga, ular yo‘q bo‘lganda esa tovar ishlab chiqarilgan mamlakat uchun qabul qilinadigan va tan olingan standartga muvofiq bo‘lishi kerak. Bunday standartlar tegishli idoralar tomonidan chiqarilgan eng oxirgi bo‘lishi kerak. Plastik kartalar EMV standartlariga mos kelishi va tegishli sertifikatlarga ega bo‘lishi kerak.
15	Tovarlarni yetkazib berish joyiga va muddatiga qo‘yiladigan talablar.	Plastik kartalar quyidagi manzilida joylashgan Bank omboriga yetkazib berilishi kerak: O‘zbekiston Respublikasi, 100011, Toshkent shahri, A.Navoiy ko‘chasi, 18-A uy. Kartalarni yetkazib berishning maksimal muddati original maketlarni Visa xalqaro to‘lov tizimida tasdiqlangandan va/yoki BAP kartalarni muvaffaqiyatli sinovdan o‘tganligi to‘g‘risida dalolatnoma imzolangan kundan boshlab 60 (oltmish) kalendar kunidan oshmasligi kerak.
16	Yetkazib beriladigan tovarlarni nazorat qilish, sinash uchun belgilangan talablar	Yetkazib beruvchi taqdim qilinishi rejalahtilayotgan kartalarning xar bir turi bo‘yicha 20 donadan test sinovlarini o‘tkazish va ularni Visa xalqaro to‘lov tizimi va Bank Perso markaziga mosligini tekshirish uchun taqdim qilishi kerak.
17	Xodimlarni o‘qitishga qo‘yiladigan talablar.	Ko‘zda tutilmagan.
18	Tovarlar bilan birga jo‘natilayotgan kerakli hujjatlar	Yuborilgan plastik kartalar bilan bir qatorda Yetkazib beruvchi Buyurtmachiga quyidagi hujjatlarni yuborish majburiyatini oladi: <ul style="list-style-type: none"> <li>• Buyurtmachi nomiga jo‘natilgan tovarlarning umumiy qiymati uchun hisob-faktura (invoys);</li> <li>• Tovarlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi;</li> <li>• Plastik karta ishlab chiqaruvchisi tomonidan berilgan sifat sertifikati;</li> </ul>
19	Kafolat va kafolatdan keyingi xizmat ko‘rsatishga qo‘yiladigan talablar (muddati, joyi).	<p><b>• Plastik kartalar uchun da’vo shartlari:</b></p> <p>Nuqsonli mahsulot yetkazib berilgan taqdirda, Buyurtmachi plastik kartalar jo‘natilgan kundan boshlab 60 (oltmish) kalendar kuni davomida Yetkazib beruvchiga yozma shikoyatlar berishga xaqli. Shikoyat Yetkazib beruvchiga qo‘lda, pochta, telegraf yoki faks orqali yuborilishi mumkin. Shikoyat quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mahsulot nomi;</li> <li>- nuqsonli birliklar soni;</li> </ul>

		<p>- nuqson xarakterining bat afsil tavsifi.</p> <p>Yetkazib beruvchi Buyurtmachining shikoyatlarini ko'rib chiqishi va shikoyat kelib tushgan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kun ichida ularning qabul qilinganligi yoki rad etilganligi to'g'risida yozma ravishda xabardor qilishi shart. Plastik kartalar dizaynidagi nomuvofiqlik yoki plastik kartalar foydalanish uchun yaroqsizligi haqida shikoyat qilish mumkin.</p> <p>Shikoyat e'tirof etilgan taqdirda, Yetkazib beruvchi nuqsonli plastik kartalarni qabul qilish va topshirish dalolatnomasi rasmiylashtirilgan kundan boshlab 60 (oltmis) kalendar kun ichida nuqsonli mahsulotni almashtirish majburiyatini oladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Plastik kartalar ekspluatatsiya davomida kafolat shartlari:</b></li> </ul> <p>Plastik kartalar bilan ishlash jarayonida plastik kartalarning ishdan chiqishi ehtimoli hajmining 1 foizidan ko'p bo'lmasligini yetkazib berilgan kundan boshlab 12 (o'n ikki) oy ichida Yetkazib beruvchi kafolatlashi shart. Plastik kartalar Buyurtmachi va mustaqil shaxs tomonidan Yetkazib beruvchining vakili ishtirokida o'tkazilgan texnik ekspertiza natijalari olinganidan keyingina nuqsonli deb topiladi. Yetkazib beruvchi nuqsonlarni tan olgan taqdirda, Yetkazib beruvchining aybi bilan nuqsonli plastik kartalar soni yetkazib berish hajmining 1 foizidan oshsa, Yetkazib beruvchi barcha nuqsonli plastik karta birliklarini nuqsonli plastik kartalar qabul qilish va topshirish dalolatnomasini rasmiylashtirilgan sanadan boshlab 60 (oltmis) kalendar kun ichida yaroqli plastik kartalarga almashtirishi lozim.</p>
20	Yaroqlilik muddati, saqlash muddati, mahsulot sifati kafolatlariga qo'yiladigan talablar;	Ko'zda tutilmagan.
21	Tovarlarni ishlab chiqarilgan yilga qo'yiladigan talablar	Plastik kartalarning ishlab chiqarish yili 2023 yildan oldin bo'lmasligi kerak.

Plastik kartalar bo'yicha dizaynlar ilova qilinadi.

kelishuvchilar: U.Alimov, J.Alimov, R.Xalikov

<https://hujjat.brb.uz/?pin=xK58pB37&id=f400fb50-4093-4cb5-8537-eded2c085d32>